

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALARGA ASOSLANGAN KREATIV
PARKLAR VA ULARNING TA'LIM JARAYONIDA
QO'LLANISHINING MEYORIY ASOSLARI**

S.P. Kutliyev¹, Sh.X. Quramboyeva², U.F.Xasanova³

¹TATU Urganch filiali assistent o'qituvchisi, q.sardor.86@gmail.com

²TATU Urganch filiali talabasi, *****@gmail.com

³TATU Urganch filiali talabasi, umidahasanova640@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi bugungi kunda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan vazifalardan kelib chiqqan holda raqamli texnologiyalarga asoslangan kreativ parklar va ularning ta'lim jarayonida qo'llanishining meyoriy asoslariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: kreativ industriya, raqamli texnologiyalar, kreativ ta'lim, kreativ park.

Аннотация: В данной тезисе особое внимание уделено творческим паркам на основе цифровых технологий и нормативной базе их использования в образовательном процессе, исходя из задач, решаемых в сфере образования сегодня.

Ключевые слова: креативная индустрия, цифровые технологии, креативное образование, креативный парк.

Abstract: In this thesis, special attention was paid to the creative park and the basic digital technology and normative basis of the use and educational process, the work, the resolution, and the sphere of education today.

Key words: creative industry, digital technology, creative education, creative park.

O'zbekiston Respublikasida kreativ industriyani, jumladan ta'lim, madaniyat va san'at sohasida kreativlikni rivojlantirishga katta ahamiyat qaratilmokda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 maydagi «Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6000-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyuldagi «2022-2026 yillarda Uzbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida» PF165-sonli farmonlarida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 avgustdagi «O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PK-3920-sonli qarorida muxim vazifalari qatoriga ta'limning barcha bosqichlarida yaratuvchanlik, innovatsion tadbirkorlik va ratsionalizatorlik ko'nikmalarini rivojlantirish orqali innovatsion faoliyat boshkaruvida inson kapitalini yanada

rivojlantirish vazifasi keltirilgan.

Kreativ industriya - intellektual faoliyat natijasi yaratilgan tovar va xizmatlarni sotishga asoslangan iktisodiyotning maxsus tarmog'i xisoblanadi. Kreativ industriyaning umume'tirof etilgan ta'rifi mavjud emas. Kreativ industriya tushunchasiga xalkaro tashkilotlar va olimlar tomonidan bir kator ta'riflar berilgan bulib, ushbu ta'riflarning asosiy mazmuni insonning bilimi, ijodkorligi va zamonaviy fikrlashi natijasida yuzaga keladigan intellektual mahsulot va xizmatlarning yuqori iktisodiy qiymatga ega ekanligi bilan tavsiflanadi. Kreativ industriyani rivojlantirishda "o'rta ta'limning yukori sinf o'quvchilari, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimida kreativ ta'lim, kreativ iqtisodiyot, kreativ industriya va boshqa fanlari bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar berish bo'yicha ta'lim dasturlarini joriy etishni amalga oshirish muxim deb baxolanishi lozim.

Shuningdek Prezidentimiz 2023 yilning 11 aprel kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida yoshlarning iqtidorini qo'llab-quvvatlashga kerakli shartsharoitlar yaratish maqsadida har bir hududda bittadan "Kreativ park" yaratish masalasi qo'yilgan. Shu nuqtai nazraidan bugungi kunda ta'limda "Kreativ park" yaratish xam muhim vazifalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158- son Farmoniga ko'ra Ta'lim tizimi islohotlarini amalga oshirishdada davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini 100 foiz kompyuter sinfi bilan ta'minlash orqali tarbiyalanuvchilarda boshlang'ich kompyuter savodxonligi ko'nikmalarini shakllantirish; Umumiy o'rta ta'lim tizimida «Ta'lim uchun qulay muhit» dasturini amalga oshirish, 700 ga yaqin nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, pedagoglar uchun metodik qo'llanmalar va mobil ilovalar yaratish, yangi avlod darsliklari asosida planshetlar uchun 1 000 ta multimedia dasturlarini yaratish, barcha umumiy o'rta ta'lim muassasalarida kasb-hunarlariga o'rgatish kurslarini joriy etish; Professional ta'lim tizimini rivojlantirish orqali o'quvchilarni zamonaviy bilim va ko'nikmalarga o'rgatish, o'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlashda davlat grantini axborot texnologiyalari, qurilish, transport va logistika yo'nalishlarida 100 foizga yetkazish; Tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish. Tibbiyot muassasalarini raqamlashtirishni 100 foizga yetkazish, Fuqarolarni davlat hisobidan kasb-hunarga o'qitish, ularning zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish bo'yicha kasbiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish Yoshlarni zamonaviy kasblar va chet tillariga o'qitish tizimini yaratish. Yoshlarning zamonaviy kasblar bilan mashg'ul bo'lishini ta'minlash uchun har bir viloyatda 1 tadan «Kreativ park»lar faoliyatini tashkil etish, ularga yiliga kamida 40 ming nafar yoshlarni jalb qilish; Yoshlar o'rtasida IT sohasini yanada ommalashtirish hamda sohada xizmatlar eksportini oshirish. IT sohasida 300 ming nafar yoshlarni ish bilan ta'minlash, maktab o'quvchilarini xalqaro IT bozorida talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasblarga o'rgatish. «Bir million dasturchi» loyahasini

kengaytirish va har yili 15 ming nafar eng iqtidorli yoshlarni nufuzli xalqaro kompaniyalar talablariga mos dasturlar asosida tayyorlash; raqamli texnologiyalarni rivojlantirgan holda mamlakatni mintaqaviy «IT-NUB»ga aylantirish, Barcha aholi punktlarini internet bilan to‘liq qamrab olish va uning tezligini 10 barobar oshirish, xalqaro internetga ulanish tezligini 5000 Gbit/s.ga yetkazish, optik tolali aloqa liniyalari va keng polosali ma’lumot uzatish tarmoqlarining qamrovini 100 foizga yetkazish. IT xizmatlar va dasturiy mahsulotlar eksporti hajmini 5 milliard dollarga yetkazish. IT-park rezidentlari sonini 10 barobar oshirish, ular tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 2,2 foizga yetkazish va ularda yaratilgan ish o‘rinlari sonini 100 mingtaga yetkazish. IT-parkda xorijiy kompaniyalar uchun «Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi»ni tashkil qilish orqali xorijiy kompaniyalar vakolatxonalari sonini 1000 taga yetkazish. Kabi muxim raqamli texnologiyalar va axborot texnologiyalarni rivojlantirishga doir vazifalar asosiy maqsad qilib olingan. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda Raqamli texnologiyalarga asoslangan Kreativ parklar tashkil etish muxim vazifalardan biridir. Mazkur «Kreativ park»da raqamli texnologiyalarga asoslangan yuqoridagi vazifalarni amalga oshiradigan va turli targibot va tashviqot ishlarini amalga oshiruvchi animatsiya darslar, turli interaktiv dasturiy vositalarda amalga oshiriladigan seminar trening va amaliy mashg‘ulotlar, ijodiy uchrashuvlar o‘tkazish imkoni mavjud bo‘lishini ta’minlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston respublikasi prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-son «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni <https://lex.uz/>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 may-dagi «Madaniyat va san’at sohasining jamiyat xayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6000-son qarori <https://lex.uz/>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyuldagi «2022-2026 yillarda Uzbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» PF-165-sonli farmoni <https://lex.uz/>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 avgustdagi «O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PK-3920-sonli qarori <https://lex.uz/>
5. Sardor Pulatovich Kutliyev, Oysuluv Matyaqubiva. Masofaviy ta’limda hamkorlikda o‘qitish texnologisini qo‘llash. International scientific conference "INFORMATION TECHNOLOGIES, NETWORKS AND TELECOMMUNICATIONS" ITN&T-2021. 2021/5/26, 303-306
6. Sardor Pulatovich Kutliyev. Smart ta’lim texnologiyalarini xozirgi ta’lim jarayonlaridagi o‘rni. International scientific conference "INFORMATION

TECHNOLOGIES, NETWORKS AND TELECOMMUNICATIONS" ITN&T-2022. 2022/4/30, 641-644

7. S Kutliyev, GR Dalerovich, TA'LIM JARAYONIDA HAYOTIY MISOLLARDAN FOYDALANISHNING DOLZARBLIGI KEYS-STADI TA'LIM METODI, Journal of new century innovations 27 (1), 113-115
8. S.K Pulatovich, PB Yusupovich, GR Dalerovich. O'RTA MAKTABLARDA INFORMATIKA FANINI O'QITISHDA MOBIL ILOVALARDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI. Journal of new century innovations 28 (1), 178-180